

**BOSHLANG`ICH SINFDA IQTIDORLI O`QUVCHILARNING  
SHAKLLANISHIDA MATEMATIK MANTIQIY  
MASALALARNING O`RNI**

**Qurbonova Sevara Suyunovna <sup>1</sup>**

<sup>1</sup> Axborot texnologiyalari va menejment universiteti  
o`qituvchisi +998 94 657 14 77

**Raxmonova Gulisa Nomozovna <sup>1</sup>**

<sup>1</sup> Axborot texnologiyalari va menejment  
universiteti o`qituvchisi

**MAQOLA  
MA'LUMOTI**

**ANNOTATSIYA:**

**MAQOLA TARIXI:**

*Received: 28.11.2024*

*Revised: 29.11.2024*

*Accepted: 30.11.2024*

**KALIT SO'ZLAR:**

*iqtidorli bolalar,  
zamonaviy maktab,  
umumiy qobiliyat,  
mantiqiy masala.*

*Maqolada bugungi kunda iqtidorli bolalarni tarbiyalashda mantiqiy masalalarning o`rni muhim ekanligi, iqtidorlilarni aniqlashda mantiqiy masalalardan unumli foydalanish, yosh avlodni tez va aniq fikrlashga o`rgatish, qobiliyatli o`quvchilar uchun maqsadli ta'limni tashkil qilish haqida fikr yuritilgan.*

**KIRISH.** Muammolarni hal qilish, mantiqiy savollarga javob berish, masalalarni yechish, jumboqlarni topish insonga o'zgacha kayfiyat bag'ishlaydi, o'ziga bo'lgan ishonchni orttiradi. Mantiqiy fikrlash bolalikdan shakllanib borishi kerak, zero Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev aytganlaridek, "Matematika hamma aniq fanlarga asos. Bu fanni yaxshi bilgan bola aqlli, keng tafakkurli bo`lib o`sadi, istalgan sohada muvaffaqiyatli ishlab ketadi".

**MUHOKAMA VA NATIJALAR.**

Bolalarda bolalikda faqat aniq fikrlar rivojlanadi, biroq balog`otga yetishish davrida biz mantiqiy fikrlashni hosil qilamiz va kundalik hayotda yuzaga keladigan turli xil vaziyatlarni hal qilish uchun uni doimiy ravishda qo`llay olamiz.

Masala nima? Har qanday matnli masala - bu hodisani vaziyatni, jarayonni) tavsiflashdir. Shu nuqtai nazardan, matnli masala hodisaning (vaziyat, jarayon) og'zaki modelidir va har

qanday modelda bo'lgani kabi, matnli masala ham butun hodisani bir butun sifatida emas, balki faqat ba'zi jihatlarini, asosan uning miqdoriy xususiyatlarini tavsiflaydi. Har qanday matnli masala ikki qismdan iborat shartlar va talablar (savollar). Shartlarda ob'ektlar va ob'ektning ba'zi raqamli ma'lumotlari, ular orasidagi ma'lum va noma'lum qiymatlar to'g'risida ma'lumot beradi. Masalaga qo'yiladigan talablar bu topish kerak bo'lgan ma'lumotdir. Bu buyruq yoki so'roq shaklidagi jumlar bilan ifodalanadi. Har qanday masalani ishlash quyidagicha boshlanadi:

- 1) O'quvchilar mustaqil ravishda masala sharti bilan tanishadilar.
- 2) O'quvchilardan biri masalani baland ovozda o'qiydi, u matnni shuday o'qishi kerakki, masala sharti hammaga tushunarli bo'lishi zarur.
- 3) So'ng o'quvchilar birgalikda masalani tahlil qiladilar.
- 4) Masalada asosiy jummalarni ajratib ko'rsatishlari kerak va masalani qisqa shartini yozadilar.
- 5) Masalani yechishning qisqa rejasini tuzadilar.
- 6) Masala modelini tanlaydilar (rasm, chizma, jadval).
- 7) Yechish usuli tanlanadi.
- 8) Masala savoliga javob beradilar.
- 9) Yechimni tekshiradilar.

Bolalarda bolalikda faqat aniq fikrlar rivojlanadi, biroq balog'otga yetishish davrida biz mantiqiy fikrlashni hosil qilamiz va kundalik hayotda yuzaga keladigan turli xil vaziyatlarni hal qilish uchun uni doimiy ravishda qo'llay olamiz.

Mantiq to'g'ri tafakkur yuritishning asosiy qonunlari va shakllari haqidagi fan. Mantiq tafakkurning namoyon bo'lish shakllari va taraqqiyotini, shu jumladan, fikrlar o'rtasidagi aloqadorlikni ko'rsatadigan qoidalar yig'indisini o'rganadi. Mantiqning vazifasi chin fikrni, haqiqatni aniqlash. Mantiqiy fikrlash bu-insonning bizni o'rab turgan hamma narsani va harakatlar, narsalar yoki hodisalar o'rtasidagi munosabatlar yoki farqlarni anglash qobiliyatini tahlil qilish, taqqoslash mavhumlashtirish va tasavvur qilish orqali kuzatish mumkin. Insonning dunyoqarashini rivojlanishida uning tili va nutqining rivojlangan bo'lishi juda muhimdir. Chunki topshiriqning yechilishi jarayonida o'quvchi topshiriqni yechish yo'llarini o'z nutqi orqali bayon qilishi, topshiriqning asosiy elementlarini ayta olishi, grafik chizmalarni chiza olishi va bilishi o'quvchi ijodiy tafakkurini rivojlantirishda katta rol o'ynaydi. O'quvchi qanchalik darajada so'z boyligiga ega bo'lsa, uning ichki aqliy imkoniyatlari ham yuqori darajada rivojlanadi va

shakllanadi. Ijodiy jarayonda o'quvchi avval topshiriqni xayoliy tasavvuri orqali bajaradi, tahlil qiladi.

Boshlang'ich ta'limda o'quvchi shaxsini har tomonlama shakllantirish, ularda fikrlash faolligini tarkib topshirish qulay davr hisoblanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutqning rivojlanishi bilan bir qatorda fikrlash faolligi ham vujudga keladi. O'quvchining taqqoslash, tasniflash, umumlashtirish, tizimlashtirishga oid dastlabki ko'nikmalari uning o'z fikrlarini mantiqiy izchillikda aniq, obrazli, ravon bayon qila olishida namoyon bo'ladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida matematika faniga bo'lgan qiziqishni hisobga oladigan bo'lsak, bugun umumta'lim maktablarida matematika darsliklarimizda mantiqiy masalalarga katta urg'u berilgan. Bola maktabdagi mashg'ulotlarning birinchi kunidayoq masala bilan uchrashadi. Matematik masalalar o'quvchilarga matematik tushunchalarni to'g'ri shakllantirishga, uni o'rab turgan muhitni chuqurroq anglashga, shu bilan birga masalalar yechishga bola tafakkurining rivojlanishiga yordam beradi.

Masalalar yechmasdan matematikani o'zlashtirishni tasavvur qilib ham bo'lmaydi. Masalalar yechishning boshlang'ich sinflarda o'rganiladigan u yoki bu nazariy materiallarni o'zlashtirish jarayonida muhim ahamiyatga ega va o'quvchilarni fikrlash qobiliyatlarini o'zlashtirishda muhim rol o'ynaydi. Masalalar amaliy ishlar sistemasi asosida tuziladi. Bu degani har bir yangi tushunchani tarkib toptirish, har doim bu tushuncha ahamiyatini tushuntirishga yordam beradigan uning qo'llanishini talab qiladigan u yoki bu masalani yechish bilan amalga oshadi.


Psixologik tadqiqot va maxsus kuzatishlarning ko'rsatishicha, yuqori aqliy qobiliyatlarga ega bolalar, aksariyat hollarda, oddiy bolalarga nisbatan birmuncha muvaffaqiyatli bo'lishadi: ta'limni o'zlashtirishlarida muammolar kuzatilmaydi, tengdoshlari bilan yaxshi muloqotda bo'lishadi, yangi sharoitga tezda moslashishadi. Bunda yoshligidan singib ketgan qiziqish va mayllari bolaning kasb tanlashi va muvaffaqiyatlarga erishishida puxta zamin bo'lib xizmat qiladi. Bunday bolalarning ta'limni oson o'zlashtirishidagi yuqori imkoniyatlari inobatga olinganligi va ijodiy rivojlanishi uchun sharoitlar yaratilmaganligi sababli ayrim muammolar tug'ilishi mumkin.

3- sinf Matematika darsligida mavzular kesimida mantiqiy topshiriqlarni ko'rishimiz mumkin. Bu topshiriqlarni yechishda o'qituvchi va o'quvchidan mahorat talab qiladi. Sababi har bir darsda unumli foydalanish uchun o'qituvchi vaqtni to'g'ri taqimlay olishi kerak. Vaqtni to'g'ri taqsimlay olmaslik, aynan mantiqiy masalalarni bajarilmay qolishiga sabab bo'ladi. Mantiqiy masalalarning bajarilmasligi bu o'quvchilarda matematika tili rivojlanmay qolishiga o'ziga bo'lgan ishonchni susayishiga olib keladi. Boshlang'ich

sinf o'qituvchisi quyidagi mantiqiy masalalar orqali bolaning nimaga qodir ekanligini tezda aniqlaydi. shu kabi masalalar bolaning iqtidorini ko'rsatib berish bilan birga o'quvchini fikrlashga majbur qilib, rivojlanishga turtki bo'ladi.


Masala 1

8 litrlik bochkadagi asaldan 4 litr asal quyib olinishi kerak. Buning uchun 3 litrli va 5 litrli ikkita bo'sh bankadan foydalanish mumkin. Buni qanday amalga oshirsa bo'ladi




Masala 2

Barcha tarozilar muvozanat holatda. 5 ta kvadratning massasini sharchalarda ifodalang.



Masala 3

Suratdagi narsalar muvozanatda turibdi. Ularning jami vazni 256 gramm. Bunda tayoqcha va iplarning vazni hisobga olinmagan. Yulduzchanning vaznini toping.



Mantiqiy masalalar va umuman barcha masalalarni yechishga oʻrgatishda quyidagi bosqichlarni amalga oshirish lozim

- 1-bosqich. Masala mazmuni bilan tanishtirish;
- 2-bosqich. Masala yechimini izlash;
- 3-bosqich. Masalani yechish;
- 4-bosqich. Masala yechimini tekshirish.

Bu bosqichlarning barchasi bir-biriga uzviy ravishda bogʻlangan boʻlib, ketma-ketlikda amalga oshiriladi. Bu bosqichlarni mantiqiy masalalar yechish barobarida batafsil koʻrib chiqamiz. 1- bosqichni koʻrib chiqamiz . Masala mazmuni bilan tanishtirish. Masala mazmuni bilan tanishtirish uni oʻqib, masalada aks ettirilgan hayotiy vaziyatni koʻz oldiga keltirish demakdir. Masalani odatda bolalar oʻqiydilar. Bolalarni masalani toʻgʻri oʻqishga oʻrgatish juda muhimdir. Amalni tanlashni belgilab beradigan oʻbor edi oʻ, oʻjoʻnab ketdi oʻ, oʻqoldi oʻbaravardan boʻldi oʻ kabi soʻzlarga va soni maʼlumotlarga urgʻu berib oʻqish masala savolini intonatsiya bilan ajratib oʻqish. Agar masala matnida tushunarsiz soʻzlar uchrasa ularni tushuntirish yoki masalada gap ketayotgan predmetni koʻrsatish lozim. Masalani bolalar bir-ikki marta, baʼzan bir necha marta oʻqiydilar, biroq masalani bir marta oʻqiganda esda qolishga ularni asta-sekin oʻrgatib borish kerak, chunki bu holda ular masalani koʻproq diqqat bilan oʻqiydilar. Masalani oʻqiganda, bolalar masalada aks ettirilgan hayotiy vaziyatni tasavvur qila olishlari lozim. Shu maqsadda bolalar masalani oʻqib boʻlishganidan keyin masalada nima toʻgʻrisida gap ketayotganini tasavvur qilib koʻrishlari va hikoya qilib berishlarini taklif qilish maqsadga muvofiq boʻladi. Har qanday bilim qiziqarli usullarda bayon qilingandagina boshlangʻich sinf oʻquvchilarining diqqat eʼtiborini tortishi va xotirasida saqlanib qolishi mumkin.

**XULOSA.**

Xulosa qilib aytganda boshlang`ich sinf o`quvchilarida mantiqiy masalalarni yechish ko`nikma va malakalarini shakllantirishda o`qituvchi oldida turgan asosiy ish bu masalani mohiyatini o`quvchilar ongiga singdirish metodikasini egallashi va uni o`quvchiga yetkaza olishi lozimdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Nishonova Z.T. Mustaqil ijodiy fikrlash. Toshkent: Fan.-2003
2. Iqtidorli bolalar muammolari va ularni ijtimoiy-pedagogik faoliyat doirasida hal qilish yo'llari // Elektron manba. Kirish tartibi: [<http://www.kursx.ru/psy86.html>].
- 3.. Jumayev M.E. « Matematika o`qitish metodikasidan praktikum». – T . 2003-yil.
4. Boshlang`ich ta`limni o`qitish metodikasi bo`yicha o`quv-uslubiy majmua. II-qism. - T-2018-M. Axmedov va b.q.
- 5.1-sinf "Matematika" darsligi T2020- yil 3. Bikbayeva N., Yangabayeva E., Girfanova K. To`rtinchi sinf matematika darsligi. Toshkent. "Oqituvchi ". 2017 yil.
6. Jumayev M.E. Bolalarda boshlang`ich matematika tushunchalarni rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. (KHK uchun) Toshkent. "Ilm-Ziyo " 2013 yil.